

CUPRESSACEAE OILASIGA MANSUB THUJA OCCIDENTALIS COLUMNA FORMASINING ONTOGENEZ BOSQICHLARI VA DAVRLARI

Abdisalomova Fayro'za To'ra qizi

O'zbekiston Milliy Universitetining 2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7945136>

Annotatsiya: O'zbekistonda tuyaning 3 ta turi va bir necha manzarali formalari introduksiya qilingan. Hozirgi kunda ko'kalamzorlashtirishda yuqori manzarali formalari, jumladan: *Thuja occidentalis* L. f.*columna* Speath va *Thuja occidentalis* L. f. *aurea* spicata Beissn keng foydalanilmoqda. Bularidan *Thuja occidentalis columnna* formasining ontogenez bosqichlari o'rGANildi.


Kalit so'zlar: Thuja, ontogenez davrlari, , urug', murtak, o'simlik.

Kirish. Hozirgi kunga kelib, Respublikamiz shaharlarini ko'kalamzorlashtirish, infratuzilmani yaxshilash va obodonlashtirishni zamonaviy arxitektura qoidalariga muvofiq ravishda saqlashga alohida e'tibor berilmoqda. Shu munosabat bilan keskin buta va chala butalar iqlimga mos yangi daraxtlar va butalar assortimenti kengaytirildi, obodonlashtirishning yangi barqaror turlari va shakllari joriy etildi, ularning istiqbolli vakillari barcha hududlarda bog'dorchilik sohasi faoliyatiga kiritildi. Ko'kalamzorlashtirish sohasida foydalanish uchun Cupressaceae oilasi vakillariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Cupressaceae oilasiga mansub turlar hayotiy shakllariga ko'ra, daraxt, buta va chala butachalardan tashkil topgan. Barglari ignasimon yoki qipiqsimon, halqa bo'ylab joylashgan, qarama-qarshi, ba'zan spiralsimon. O'simliklar bir uyli, ba'zan ikki uyli. So'ngi yillarda xalqaro miqyosda olib borilgan umumiy ochiq uru'g'li o'simliklar tizimida ham o'zgarishlar yuzaga kelgan. Cupressaceae oilasi sistematik jihatdan Pinidae ajdodi, Cupressales qabilasiga mansub bo'lib 22ta kenja oilaga ajratilgan. Tadqiqot obyekti bo'lgan turlar- Cupressaceae oilasining *Thuja* turkumi vakillaridir [1; 251-260-b.].

Hozirgi kunda Toshkent Botanika bog'ida g'arb tuyasining bir qancha formalari: sharsimon, ustunsimon, smaragd, yuvenil bargli yaltiroq bargli va pakana bo'yli formalari o'stirilmoqda. *Thuja occidentalis* L. f.*aurea* spicata Beissn. Yaltiroq bargli shoxlari yo'onroq, yaltiroq, uchli tillarang formasi. Qishda ignabargli tillarang qo'ng'ir bahorda esa yana tillarangga aylanadi. [2; 504-602-b., 3; 102-103-b.].


Tadqiqot metodlari. O'simliklarning labaratoriyyada urug' unuvchanligini aniqlashda va ontogenezinining dastlabki bosqichida T.I. Slavkina (1966) [4; 54-62-b] metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili. Latent davrida urug'lar labaratoriya sharoitida petri idishlariga ekib, ularning turli haroratlarda urug' unuvchaligini o'rgandik. Bunda +28-29 °C da yaxshi



unganligi va past harorat $+20-22^{\circ}\text{C}$ da unuvchanlik past ekanligini kuzatdik. Urug'lar 3-4 kundan so'ng unib chiqsa boshladi.

1-rasm. *Thuja occidentalis columnna* formasining labaratoriya sharoitida urug' unuvchanligi.



2-rasm. *Thuja occidentalis columnna* formasining labaratoriya sharoitida urug' unuvchanligi.

Virginil davri. Maysa bosqichi. 2021-yilning noyabr oyida ekilgan qalamchalar 2022 - mart oyida ildiz otdi. Bu paytda havoning o'rtacha harorati $+11.3^{\circ}\text{C}$, eng yuqori harorat $+42.9^{\circ}\text{C}$, eng past harorat esa -1.1°C ni tashkil etdi. Bir yillik yozgi qalamchasini balandligi 18,5 sm aprel oyining o'rtalarida(15.04.2022) bu paytda havoning o'rtacha harorati $+12.4^{\circ}\text{C}$, havoning maksimal harorati $+33.1^{\circ}\text{C}$, Havoning minimal harorati -0.4°C ni tashkil etadi. Ildiz qismining uzunligi esa 7-8 sm ga chuqurlashgan. Oktabr oyiga kelib o'sishdan to'xtaydi.

Generativ davri. O'sish davrining 10-11 yilidan boshlab onalik gullari va changchilar ko'plab paydo bo'lganligi aniqlandi. *Thuja occidentalis columnna* formasining balandligi 250-260 sm ga yetdi. Ildiz bo'g'zining aylanasi 12.5-13 sm, diametric esa 3.5 smni tashkil etdi. Qubbalarining eni 0.7-0.8 mm, bo'yi 1-1.3 sm ga teng. Bu o'simlik qalamchalaridan vegetativ ko'paytirish samarali hisoblanadi.



Thuja occidentalis columnna formasining 10-11 yillik qalamchalarini ko'rinishi.

Xulosa. Tadqiqotimiz davomida *Thuja occidentalis columnna* formasi labaratoriya sharoitida undirilganda $+20-22^{\circ}\text{C}$ da yaxshi unmaganli ya'ni unuvchanlik past ekanligi kuzatildi. $+28-29^{\circ}\text{C}$ da esa yaxshi unganligini kuzatdik. Labaratoriyada urug' unuvchanlik yangi urug'larda olib borildi.

References:

1. Guvenc Aysegül, M. Mesud Hurkul, Ali Erdem Turk. J. Bot. The leaf anatomy of naturally distributed Juniperus L. (Cupressaceae) species in Turkey 35. – Tübita, 2011. – P. 251-260.
2. Колесников А.И. Декоративная дендрология. – М.: Лесная промышленность, 1974. – С. 504-602.
3. Жуманиязов А., Маткаримов Н.Б., Бабажанов Ж.Р. Аҳоли яшаш худудларини кўкаламзорлаштиришда экиладиган дараҳт турларининг айрим хусусиятлари // VII Международная научно-практическая конференция «Проблемы рационального использования и охрана природных ресурсов южного приаралья» Сборник материалов, часть II «Илим» Нукус, 2018 – С. 102-103.
4. Славкина Т.И. Изучение основных биологических закономерностей в онтогенезе хвойных (методика) // Интродукция и акклиматизация растений. – Вып. 4. – Ташкент: Фан, 1966. – С 54-62.